

INNOVATION TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH TARAQQIYOT OMILI

Suvanov Ilhom Abdixalilovich

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi, Falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O’zbekistonda har tomonla yetuk barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish maqsadida innovatsion yondashuv asosida sog’lom raqobatni kuchaytirish va rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilayotganligi borasidagi fikrlar tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda ta’lim – tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida har tomonla yetuk barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishda innovatsion yondashuvni taqoza etish borasidagi fikrlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O’zbekiston, ilm-fan, barkamol avlod, tarbiya, innovatsiya, islohot, texnika.*

FORMATION OF INNOVATIVE THINKING DEVELOPMENT FACTOR

Annotation. *This article analyzes opinions regarding the creation of broad opportunities for strengthening and developing healthy competition based on an innovative approach in order to educate and educate the mature generation in all aspects in New Uzbekistan. The article also highlights the ideas about the need for an innovative approach to the education and upbringing of a comprehensively developed generation in the framework of ongoing reforms in the field of education in our country.*

Key words: *New Uzbekistan, science, perfect generation, education, innovations, reforms, technologies.*

Globallashuvning tobora avj olishi jahon siyosatida to‘xtovsiz o‘zgarishlarga zamin yaratmoqda. Bugungi dunyoning siyosiy manzarasiga nazar tashlar ekanmiz, XX asr kuch-qudrati, tabiiy boyliklari va hududining kengligi bilan belgilangan bo‘lsa, XXI asrga kelib, inson omilining texnik-texnologik yutuqlarini keng miqyosida takomillashtirilishi, tafakkur olamining tez suratlar bilan o‘zgarishi hamda intelektual mulk salohiyatining o‘sish ko‘rsatkichlari bilan belgilanadigan bo‘ldi.

Bu esa, o‘z navbatida ilm-fan, texnika taraqqiyotining misli ko‘rilmagan darajada jadallahushi, ta’lim-tarbiya jarayoni va tuzilmalarida innovatsion yondashuvni kuchaytirishga talab oshib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “**Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi**” kitobida ta’kidlaganidek, “**Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi vaqtida mamlakatimizda 300 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, ilmiy-ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy-texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda**”¹.

Mamlakatimizda ta’lim – tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida har tomonla yetuk barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishda innovatsion yondashuvni taqoza etmoqda. Yangiliklarga intilish, shuningdek, barcha sohalarda raqobatni kuchaytirish davrida innovatsiyalarni rivojlantirishning keng yo‘llarini ochish jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir. Insoniyatning butun tarixiy yo‘lidagi taraqqiyoti jamiyatning barcha a’zolari, ayniqsa, yoshlarning ta’lim va tashabbuskorligi bilan belgilanadi.

Prezidentimiz tomonidan barcha hududlarda ilmiy salohiyatni tiklash va hududlarni kompleks rivojlantirishda intellektual salohiyatdan samarali foydalanish, yoshlarni innovatsion fikrlashga, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga faol jalb etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab qo‘yilmoqda.

¹ Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – B.235.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangilanish” (yoki “o‘zgarish”), “in” qo‘srimchasi esa lotinchadan “yo‘nalishida” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “Innovatio” ko‘rinishida tarjima qilsak – “o‘zgarishlar yo‘nalishida” deb izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining **“Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”**gi Qonunida **“innovatsiya** – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanma”, deyilgan bo‘lsa, **“innovatsion faoliyat** – yangi yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o‘tkazilishi va amalga oshirilishini ta’minalash bo‘yicha faoliyat” deb, ta’rif berilgan².

Innovatsiyaga har qanday turdagи yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim. Innovatsiyalar bilimlar va g‘oyalarni mablag‘larga aylantirish, yangi konsepsiyanı yaratish, ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko‘rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish bilan ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farq qiladi.

Innovatsion taraqqiyot mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, intellektual salohiyatni takomillashtirish, yangi sanoat hamda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish sohasi faoliyatini kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish, uning eksportbopligini ta’minalashga doir vazifalarni hal etishda muhim o‘rin tutadi.

Bugungi zamon talabi intelektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash borasida teran fikrlashni taqoza etmoqda. Bu haqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: **“...farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar, yetuk mutaxassislar etib bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni olib bormoqdamiz”**³. Zero, bugungi tezkor rivojlanayotgan globallashuv sharoiti yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirishda yanada jadal va shijoat bilan ishslash vazifasini qo‘ymoqda.

² O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-630-son

³ Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – B.49-50

Dunyo tajribasidan ma'lumki, tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi. Bu ikki jarayon o'zaro uyg'unlashuvi natijasida odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, intelektual salohiyati yuqori, innovatsion tafakkurga ega, bilimdon, zukko, dunyoqarashi keng bo'lgan zamonaviy kasb-xunarni egallagan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi zamon talabi dunyo miqyosida keskin tus olib berayotgan shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob berish strategik vazifaga aylanib bormoqda. Zero, dunyo tamaddunidan ma'lumki, taraqqiyotning poydevori ham, mamlakatni qudrati, millatni buyuk qiladigan kuch bu albatta, ilm-fan, ta'lim va tarbiyaga qaratiladigan e'tibor bilan belgilanadi. Shu bilan birga har qanday mamlakatni ertangi kuni kelajakdagi yorug'i istiqboli, eng avallo, yoshlarni ta'lim - tarbiyasiga qaratilayotgan istiqboli bilan bevosita bog'liq. Zero, Prezidentimiz aytganidek, "**Endigi vazifa - nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratishdan iborat**"⁴.

Shulardan kelib chiqqan holda, bu borada har tomonlama teran fikrlaydigan, aqlli, dunyoda yuz berayotgan voqeа-hodisa va jarayonlarga nisbatan mustaqil fikr yuritib, to'g'ri pozitsiya tanlay oladigan yoshlар - millatimiz buyukligi, yurtimiz mustaqilligi, tinchligi va osoyishtaligini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlарimizni ona yurtga sadoqat, vatanga fidoyi etib tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish bugungi kunning dolzabr vazifalari qatoriga kiradi.

Shu o'rinda, Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida yoshlarlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ma'rifat va madaniyatga yetaklashga alohida e'tibor qaratishgan. Buyuk allomalarimiz o'z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, mas'uliyatligini, murakkabligini, shu bilan birga sharaflı ekanligini ta'kidlab o'tishgan.

⁴ Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022. – B.237.

Jamiyatning barcha sohalariga innovatsiyalarni qo'llash ijtimoiy hayotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida yangilik kiritish, yangi fikr, mulohazalar doimo ilm-fan diqqat markazida turadi. Innovatsiya bu davr talabi va taqozosidir.

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga innovatsiyalarni qo'llash va tatbiq etish tobora kuchayib bormoqda. Xususan, yoshlarda innovatsion tafakkurni shakllantirish orqali o'z ishiga vijdonan yondashuv, o'ziga bo'lgan ishonchni his etish, o'zining ilg'or g'oyalari ortidan ergashtira olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda zamonaviy, innovatsion g'oyalari, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, davlatni izchil va barqaror rivojlantirishda hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda. Bunday yangicha qarash albatta ta'limga bo'lgan an'anaviy munosabatni tubdan o'zgartirishga zamin yaratdi. Binobarin, taraqqiyot zamiriga teran nigox bilan nazar tashlar ekanmiz, dunyoning eng rivojlangan davlatlarining bugungi taraqqiyoti albatta, ta'lim, ilmga asoslangan modernizatsiyaga tayanib hozirgi zamon darajasiga erishgan.

Dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo inson tafakkuri, uni o'zgartirish masalasiga asosiy e'tiborni qaratish, mamlakatimiz va xalqimizning taqdiri va kelajagi – aynan yosh avlodning qanday ta'lim va tarbiya olishi, ular uchun qanday shart-sharoit yaratish, bugungi kunda islohotlarimiz talabi, hozirgi kunda yangicha va mustaqil va innovatsion fikrlaydigan, mas'uliyatli, tashabbuskor, vatanparvar yoshlarimiz jahon maydonlarida millatimiz va xalqimiz or-nomusi uchun kamarbasta bo'lish lozim.

Yangi O'zbekistonda innovatsion faoliyat yangiliklar yaratish bilan cheklanib qolmasdan, ilg'or tajribadan yanada keng foydalanish, xalqimizning farovon hayotini ta'minlash uchun zamonaviy sharoitlar yaratish, dunyoda Vatanimiz maqomini oshirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar ruyxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-630-son.
2. Mirziyoev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022. – 440 bet.